



## ADABIYOTDA TARIXIY SHAXSLAR OBRAZI

(„Ulug‘bek xazinasi ” va „Ona lochin vidosi ” romanlari asosida)

*Mamajonova Mohiraxon Abduxalil qizi*

*Farg‘ona davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi*

### Annotatsiya

Mazkur maqolada temuriylar davri bilan bog‘liq ikki muhim badiiy asar qiyosan tahlil qilinadi. „Ulug‘bek xazinasi”da Mirzo Ulug‘bek shaxsiyati ilm-fan fidoyisi sifatida tarixiy asosda yoritiladi . „Ona lochin vidosi”da esa Gavharshod begim siymosi ona timsoli orqali ochilib, ma’naviy matonat va fidoiylik ramziy yo‘sinda ifodalanadi . Tahlil davomida ona va farzand obrazlari o‘rtasidagi ruhiy bog‘liqlik, tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg‘unligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar:tarixiy shaxs, ona timsoli, temuriylar davri, fojea, psixologik tasvir, ramziy obraz, ma’naviyat

Badiiy adabiyotning asosiy vazifalaridan biri tarixiy o‘tmishda sodir bo‘lgan voqealar, yaqin yoki olis o‘tmishda yashagan tarixiy shaxslarga bag‘ishlangan asarlar yaratishdir. Ilmiy tadqiqotlardan farqli o‘laroq, yozuvchi yoki shoir tarixiy mavzudagi asarda tarix haqiqatiga suyangan holda to‘qimadan ham samarali foydalanadi. Yozuvchi yoki shoir tarixiy shaxslar bilan birga shu shaxslar obrazini yorqin mujassamlantirish, tasvir etilayotgan davr manzarasini keng va atroflicha yoritish maqsadida to‘qima qahramonlar obrazini asarga olib kiradi. Tarixiy mavzuda asar yozuvchi muallifdan tasvir etilayotgan davr hayotini yoki tarixiy shaxsning hayoti va faoliyatini tarix hujjatlari (arxiv materiallari, xotiralar va h.k.)



asosida o'rganish, shu davrning tarixiy koloritini haqqoniy ifodalash, personajlar nutqida o'sha davr kishilari tiliga xos xususiyatlarni aks ettirish talab etiladi. Yozuvchi yoki shoirning tarixiy mavzuga murojaat etishdan maqsadi, kitobxonlarni tarixiy o'tmishdagi muhim voqealar, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishtirish, ularda o'z xalqining tarixiy o'tmishiga nisbatan hurmat tuyg'usini uyg'otish va shu yo'l bilan ma'rifatli avlodni tarbiyalash; zamondoshlarni tarixiy o'tmish voqealaridan, tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatidagi ibratli tomonlardan saboq olishga undash; bugungi voqelikdagi ayrim noxush voqea va hodisalarga tarixiy o'tmish voqealarini tasvirlash orqali munosabat bildirishdir. Tarixiy mavzudagi asarlar asosan nasrning roman, qissa va hikoya, dramaturgiyaning tragediya va drama, shuningdek, she'riyatning doston, ballada, lirik she'r kabi janrlarida yoritiladi. Jahon adabiyotida tarixiy o'tmish mavzusi Esxil, va U.Shekspir tragediyalari, Haynrix Man, V.Skott, Prosper Merime, A.Dyuma, J.Golsuorsi, L.N. Tolstoy, A. Konan Doyl va boshqa yozuvchilarning romanlarida katta mahorat bilan yoritilgan. o'lsak, Aleksandr Dyuma ijodi ancha sermahsul ekanligiga guvoh bo'lamiz. Fransuz romanisti bo'lgan ijodkor yuzdan ortiq tarixiy-sarguzasht romanlar yaratgan. "Uch mushketyor", "Graf Monte-Kristo", "Qora lola", "O'n yildan so'ng", "Yigirma yildan so'ng", "Qirolicha Margo" shular jumlasidandir. O'zbek adabiyotida ham tarixni badiiy asarlarida gavdalandirgan O'zbek adabiyotida ham tarixni badiiy asarlarida gavdalandirgan bir qancha ijodkorlar mavjud. Xususan, adabiyotimizdagi ilk tarixiy asar muallifi Abdulla Qodiriy den tan olingan. Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini" romanida olim va shoh Mirzo Ulug'bekning fojiali hayoti, umrining so'nggi damlaridagi hayotiy ziddiyatlar zamiridagi faoliyatining badiiy talqini haqida so'z yuritiladi. "Tarixiy faktlardan oziqlangan Odil Yoqubov romanda Mirzo Ulug'bek va o'g'li Mirzo Abdulatif ziddiyatlaridan, uning toj-taxt uchun olib borayotgan kurashlaridan iztirob chekayotgan xalq hayoti, uning murakkablashish jarayoni, podshohlikdagi kurashlardan ozor chekkan xalq fojealari juda asosli ifodalangan." „Ulug'bek



xazinasini” markazida Mirzo Ulug‘bek turadi. Asarda uning ilmiy faoliyati, rasadxona bunyod etishi, yulduzlar ilmini rivojlantirish yo‘lidagi izlanishlari bilan birga siyosiy muhitdagi keskinliklar ochib beriladi. Qahramon ichki dunyosida ilmga sadoqat va hokimiyat talablari o‘rtasidagi ziddiyat kuchli aks etadi. Natijada tarixiy shaxs fojeasi chuqur psixologik asosda yoritiladi. Pirmqul Qodirov qalamiga mansub „Ona lochin vidosi” esa temuriylar sulolasining yana bir muhim vakili — Gavharshod begim siymosiga e’tibor qaratadi. U tarixda madaniyat va me’morchilik homiysi, siyosiy dono ayol sifatida tanilgan. Asarda bu shaxs ona timsoli bilan uyg‘unlashib, farzand taqdiri uchun kuyinuvchi, og‘ir sinovlarga bardosh beruvchi ayol sifatida talqin qilinadi. Ona lochin obrazi uning ruhiy holatini ifodalovchi ramz bo‘lib xizmat qiladi: parvoz – umid, ayriliq – fojea, sadoqat esa abadiy qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. Har ikki asarni birlashtiruvchi asosiy jihat – ular bir sulola vakillarini turli nuqtai nazardan tasvirlaydi. Birinchisida o‘g‘il — buyuk olim va hukmdor sifatida gavdalanadi, ikkinchisida esa ona — ma’naviy tayanch sifatida yuksaltiriladi. Shu orqali tarixiy voqealik ikki qirrada ochiladi: davlat boshqaruvi va oilaviy-ruhiy olam. Farqlar esa ifoda uslubida seziladi. “Ulug‘bek xazinasini” keng epik tasvirga ega bo‘lib, tarixiy jarayonlarni batafsil yoritadi. “Ona lochin vidosi” ixcham shaklda yozilgan bo‘lsa-da, chuqur ramziy ma’nolarni o‘zida jamlaydi. Birinchi asarda voqealar ketma-ketligi muhim bo‘lsa, ikkinchisida hissiy kechinmalar yetakchi hisoblanadi.

### Xulosa

Qiyos natijasi shuni ko‘rsatadiki, “Ulug‘bek xazinasini” tarixiy shaxsning ilmiy va siyosiy faoliyatini real asosda ochib beradi. “Ona lochin vidosi” esa shu sulolaga mansub ona siymosini ma’naviy timsol darajasiga ko‘taradi. Ona va o‘g‘il obrazlari orqali temuriylar davri nafaqat tarixiy hodisa, balki chuqur insoniy kechinmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Quronov D . Mamajonov Z. Sheraliyeva M . Adabiyotshunoslik lug'ati , Toshkent: „Akademnashr ” , 2013
2. Toshmuhammedova L. Adabiyot tarixi va nazariyasi o'quv qo'llanma , Toshkent :Sharofat Nur Fayz , 2020
3. Yoqubov O. „ Ulug'bek xazinasini “ , Toshkent :G'fur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti ,1994
4. Qodirov P . „ Ona lochin vidosi “ Toshkent : „Sharq “ nashriyoti ,2001